



ISLOM MOLIYASIDA MUZORABA VA MUSHORAKANING AMALIY QO‘LLANILISHI VA KAMCHILIKLARI

PRACTICAL APPLICATION AND LIMITATIONS OF MUDARABAH AND MUSHARAKAH IN ISLAMIC FINANCE

¹Nuritdinova Zarnigorxon
Fazliddin qizi, ²Alimardonov
Elshod Dilshodovich

¹Mustaqil tadqiqotchi,
²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqola islom moliya tizimida keng muhokama qilinadigan, ammo amaliyotda kam qo‘llaniladigan muzoraba (foyda taqsimoti) va mushoraka (foyda va zarar taqsimoti) shartnomalarining mohiyatini, qo‘llanish usullarini va ularning kamchiliklarini tahlil qiladi. Maqolada ushbu shartnomalarning nazariy afzalliklari va islomiy iqtisodiyotdagi o‘rni yoritilib, ularning amaliyotda cheklanganlik sabablari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e‘tibor ularning yuqori xavfi, murakkab boshqaruvi, regulativ cheklovlar va bozor talablariga moslashuv muammolariga qaratilgan. Tadqiqot ushbu shartnomalarning kelajakda yanada kengroq qo‘llanilishi uchun zarur bo‘lgan yechimlarni, jumladan, texnologik innovatsiyalar va tartibga solishni takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Eng. - This article analyzes the essence, application methods, and shortcomings of Mudarabah (profit-sharing) and Musharakah (profit and loss sharing) contracts, which are widely discussed but rarely applied in Islamic finance. The article highlights the theoretical advantages of these contracts and their role in the Islamic economy, while exploring the reasons for their limited practical implementation. Primary focus is given to their high risk, complex management, regulatory constraints, and market adaptability issues. The research emphasizes the necessity of solutions, including technological innovations and improved regulation, for the wider future application of these contracts.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ islomiy moliya aktivlari, muzoraba, mushoraka, mutlaq muzoraba, cheklangan muzoraba, ra’sul mol, rabbul mol, g‘ash qiluvchi, ibzo, risk taqsimoti, moliyalashtirish kamchiliklari, asimmetrik ma’lumotlar, operatsion xarajatlar, AAOIFI, qonunchilik.

❖ islamic financial assets, mudorabah instrument, musharakah, absolute mudorabah instrument, limited mudorabah, rasul mol, rabbul mol, usurper, ibza, risk sharing, financing shortcomings, asymmetric information, operational costs AAOIFI, legislation.

Kirish.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, aksariyat islom banklari hali ham mijozlarni moliyalashtirishda kapitalga asoslangan shartnomalardan ko‘ra birjaga asoslangan shartnomalarni afzal ko‘rishadi. Ya’ni islomiy banklar tomonidan moliyalashtirishning atigi

5 foizdan kamrog‘i kapitalga asoslangan shartnoma: muzoraba va mushoraka shartnomalaridan foydalanmoqda. Islomiy moliyalashtirishda tavarru va murabaha shartnomalari ustunlik qiladi, ular butun dunyo bo‘ylab umumiy islomiy moliyalashtirishning 20 foizdan ortig‘ini

qamrab oladi. Bu shuni ko'rsatadiki, islomiy banklar kapital qaytarilishning riski, axborot assimetriyasi, monitoring va nazorat qilishning cheklangan imkoniyatlari sabab bunday muammoga duch kelmoqda. Keyingi bo'limda islomiy banklarda muzaraba va mushoraka shartnomalarining qo'llanilishi muhokama qilinadi. Islom moliyasi tizimi o'zining asosiy tamoyillarida odil va barqaror iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bu tamoyillar foiz (ribo)ni taqiqlash va moliyaviy muomalalarni real iqtisodiy faoliyatga bog'lashni o'z ichiga oladi. Aynan shu nuqtai nazardan muzoraba va mushoraka shartnomalari islomiy moliyaning o'zagini tashkil etuvchi, riskni taqsimlash va hamkorlikka asoslangan moliyalashtirish shakllari sifatida qabul qilinadi. Muzoraba bir tomon mablag' (Sahib al-Mal), ikkinchi tomon esa mehnat va boshqaruv (muzorib) bilan ishtirok etadigan foyda taqsimoti shartnomasidir. Mushoraka esa ikki yoki undan ortiq tomonning ham kapital, ham mehnat bilan ishtirok etib, foyda va zararni kelishilgan nisbatda taqsimlashi asosidagi sheriklikdir.

Nazariy jihatdan ushbu shartnomalar haqiqiy ishlab chiqarish va savdo faoliyatini rag'batlantirib, kapital egalari va tadbirkorlar o'rtasida riskni adolatli taqsimlashni ta'minlaydi. Biroq, amaliyotda ularning islomiy moliyalashtirish portfelidagi ulushi murabaha (narx ustiga foyda qo'shib sotish) va ijara (ijaraga berish) kabi shartnomalarga nisbatan ancha kam. Ushbu maqolaning maqsadi muzoraba va mushoraka shartnomalarining amaliy qo'llanilishini, shuningdek, ularning keng tarqalishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy kamchiliklarni IMRAD (Kirish, metodologiya, natijalar, muhokama) talablari asosida tahlil qilishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Islom moliyasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar muzoraba va mushoraka shartnomalarining ahamiyati borasida boy adabiyotni hosil qilgan. Bu

shartnomalar islom iqtisodiyotining asosiy o'zagi sifatida e'tirof etiladi, chunki ular real iqtisodiy faoliyatga bevosita bog'liq bo'lib, riskni adolatli taqsimlashga qaratilgan (El-Gamal, 2006). Nazariy jihatdan, ular kapital egalari va tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglikni ta'minlaydi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

O'zbekistonlik taniqli ulamo Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Ixtiloflar: sabablari, yechimlari" kabi asarlarida Islom fiqhida muomalat (moliyaviy muomalalar) masalalari, jumladan, sherikchilik (shirka) va undan kelib chiquvchi shartnomalarning shariy hukmlari batafsil yoritilgan. Uning ishlari muzoraba va mushorakaning fiqhiy asoslarini mustahkamlaydi va musulmonlar uchun ushbu tamoyillarning asosiy manbalarini tushunishda muhim rol o'ynaydi [1].

Hozirgi zamon islom moliyasi sohasining yetakchi olimlaridan biri bo'lgan Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy o'zining "Islomiy moliyalashtirish shakllari" (An Introduction to Islamic Finance) kitobida muzoraba va mushorakaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilgan. U bu shartnomalarning islom bankchiligi uchun naqadar muhim ekanligini ta'kidlab, ularning amaliyotda qo'llanilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniq ko'rsatib bergan. Taqiy Usmoniy zamonaviy bank tizimining foizga asoslangan modeliga moslashish jarayonida ushbu haqiqiy sheriklikka asoslangan shartnomalar o'rniga ko'proq murabaha kabi sotishga asoslangan shartnomalar afzal ko'rilayotganini tahlil qilgan [2].

Biroq, ko'plab boshqa tadqiqotlar ham ushbu shartnomalarning amaliyotda kam qo'llanilishiga e'tibor qaratgan. Keng tarqalgan adabiyotlarda bu holatning asosiy sabablari sifatida quyidagi omillar ko'rsatiladi:

Yuqori xavf (Risk): Fawad Khan ta'kidlashicha, islom banklari an'anaviy banklarga o'xshab, sarmoyaning qaytarilishini kafolatlay olmaydi. Muzoraba va mushorakada

banklar moliyalashtirilgan loyihaning har qanday zararini o'z zimmasiga olishi shart, bu esa banklarning risk profiliga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3].

Asimmetrik ma'lumotlar va axloqiy xavf (Moral Hazard): Al-Harran o'z ishlarida Muzorib (ish yurituvchi) va bank o'rtasidagi ma'lumotlar farqini alohida ta'kidlaydi. Muzorib loyihaning haqiqiy holati haqida bankdan ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin, bu esa suiiste'mol qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa bank uchun loyihaning samaradorligini doimiy kuzatib borish zaruratini tug'diradi [4].

Boshqaruvning murakkabligi va xarajatlari: Saiful Azhar Rosly 2005-yilda chop etilgan "Critical issues on islamic banking and financial markets" nomli asarida bu shartnomalar har bir loyiha uchun alohida chuqur tahlil, doimiy monitoring va shaffof hisobotlarni talab qilishini ta'kidlaydi. Bu jarayon murabaha yoki ijara kabi soddaroq shartnomalarga nisbatan ancha qimmat va vaqt talab qiladi. Shuning uchun, banklar operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida ko'pincha kam xavfli va oson boshqariladigan shartnomalarni tanlaydi [5].

Regulyativ va huquqiy muammolar. Islom moliyasi bo'yicha standartlarni ishlab chiquvchi AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) kabi tashkilotlar muzoraba va mushoraka uchun aniq qoidalar ishlab chiqqan bo'lsa-da, ko'plab mamlakatlarning moliyaviy qonunchiligi bu shartnomalarga to'liq mos kelmaydi. Bu esa ularni keng miqyosda qo'llashda huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot muzoraba va mushoraka shartnomalarining nazariy asoslarini tushunishga, ularning amaliy qo'llanilishiga oid mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqishga va ularning kamchiliklarini tizimli ravishda aniqlashga qaratildi. Mavzuni ilmiy o'rganish,

tahlil va tadqiq etish jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan. Tadqiqot muzoraba va mushoraka shartnomasining qur'on va sunnatdagi asoslarini, ulamolarning ijmosini va turli mazhablarning qarashlarini o'rganishga qaratildi. Maqola huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ushbu shartnomaning xususiyatlarini, uning shariy talablarini va zamonaviy bank amaliyotidagi o'rnini tahlil qiladi. islomiy moliya sohasidagi yetakchi mutaxassislarining fikrlari va tahlillari hisobga olindi. Maqola islomiy huquq (fiqh) tamoyillariga va zamonaviy iqtisodiy tahlillarga tayanadi.

Maqolada, ilmiy abstraktsiya usulidan foydalanish zahirida muzoraba va mushoraka shartnomasining kamchiliklari yuzasidan xulosalar chiqarildi va ularga mos ravishda mamlakatimiz islommoliya bozorini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muzoraba va mushoraka shartnomalari islom moliya tizimining nazariy jihatdan eng muhim qismi bo'lishiga qaramay, amaliyotda ularning qo'llanilishi sezilarli darajada cheklangan. Quyida biz muzoraba va mushoraka shartnomalarining asosiy kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Kam ulush: Aksariyat islom banklarining moliyalashtirish portfelida Murabaha (taxminan 70-80 foiz), Ijara (taxminan 10-15 foiz) kabi moliyalashtirish usullari ustunlik qiladi. Muzoraba va mushoraka jami operatsiyalarning 5-10 foizdan oshmaydi, ayrim hollarda undan ham kamroq bo'lishi mumkin. Ular asosan kapital talab qiladigan, uzoq muddatli va yuqori daromad salohiyatiga ega bo'lgan loyihalarda (masalan, yirik infratuzilma loyihalari, sanoat, ba'zan esa qishloq xo'jaligi va venchur kapitallarida) qo'llaniladi. Kichik va o'rta biznes (KO'B)ni

moliyalashtirishda esa ularning ulushi juda past.

Banklararo siyosat. Ko'pgina islom banklari ushbu shartnomalarni juda ehtiyotkorlik bilan va faqat yuqori darajada ishonchli mijozlar va aniq biznes-rejali loyihalar uchun taklif etadi. Bu esa ushbu shartnomalarning ulushini kamaytiradi.

Risk darajasi. Bank moliyalashtiruvchi sifatida loyihaning foyda va zarariga sherik bo'ladi. Loyiha muvaffaqiyatsiz bo'lsa, bank ham sarmoyasining bir qismini yoki hammasini yo'qotishi mumkin. Bu foizga asoslangan kreditlardagi "kafolatlangan" daromaddan farq qiladi.

Asimmetrik ma'lumotlar va axloqiy xavf (Moral Hazard). Moliyalashtiruvchi (bank) loyiha boshqaruvchisi (tadbirkor)ga nisbatan loyiha haqida kamroq ma'lumotga ega bo'ladi. Bu boshqaruvchining loyihani ehtiyotsiz boshqarishi yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etishi kabi axloqiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Murakkab boshqaruv va monitoring. Foyda va zararni to'g'ri baholash, hisoblash va taqsimlash doimiy monitoringni, shaffof buxgalteriya hisobini va chuqur moliyaviy tahlilni talab qiladi. Bu esa banklar uchun sezilarli operatsion xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Regulyativ cheklovlar va standartlarning yo'qligi. Ko'pgina mamlakatlarning moliyaviy qonunchiligi an'anaviy, foizga asoslangan bank tizimiga moslashtirilgan. Muzoraba va mushoraka uchun aniq huquqiy va regulyativ baza ba'zan mavjud emasligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning keng qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi. Standartlashtirilgan shartnomalar va amaliyotlarning yo'qligi ham muammo hisoblanadi.

Daromadning noaniqligi. Bank uchun muzoraba va mushorakadan olinadigan daromad loyihaning haqiqiy muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lib, oldindan aniq prognoz qilinishi

qiyin. Bu esa banklarning barqaror daromad olish strategiyalariga zid kelishi mumkin.


Bozor talabi. Mijozlarning ham, bank xodimlarining ham ushbu murakkab moliyalashtirish usullari haqidagi xabardorligi ba'zan past bo'lishi mumkin, bu esa ularga bo'lgan talabni cheklaydi.

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, muzoraba shartnomasi sarmoya egasi va muzoraba ishini yurituvchi tajribali ishchi orasidagi tijorat shartnomasi bo'lib, har qanday kelishuv nihoyasidagi foyda ular o'rtasida kelishilgan nisbat asosida taqsimlanadi. Ammo ziyon yolg'iz sarmoya egasiga yuklanadi, muzoraba amalini yurituvchi esa ish va sayi harakatlariga kuyadi. Ya'ni ushbu shartnomada sarmoya berib turish bir tarafdin, ishni idora qilish va sarmoyani tasarruf etish ikkinchi tarafdin sodir bo'ladi. Muzorabaning shariatda joizligiga tijoratni halol qiladigan ba'zi qur'oniy oyatlarning umumiy yoki to'liq ma'nolari dalolat beradi. Xususan, Niso surasi, 29-oyatda "Ey iymon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Faqat o'zaro rozilik ila tijorat bo'lsa, mayli". Islom ummati doimo mol-mulkda, moliyaviy muomalalarda sherikchilikni ma'qullab kelgan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda, Alloh taolo aytadi: "Men ikki sherikning, modomiki ulardan biri o'z sherigiga xiyonat qilmasa, uchinchisidirman, agar unga xiyonat qilsa, men ularning oralaridan chiqaman" deyilgan.

Mazkur shartnomada bir kishi sarmoya kiritadi, ikkinchi kishi esa ishni yuritadi, loyihani boshqaradi, ya'ni bitim faqat ikkita tomon o'rtasida imzolaniadi. Islom banki va islom darchalari ham jismoniy va yuridik shaxslardan hamda turli sarmoyadorlardan (jumladan xorijiy) moliyaviy mablag'lar jalb qilishda muzorabadan foydalanadi va faoliyat yuritadi. Bu mablag'lar an'anaviy bankchilikda bo'lgani kabi talab qilib olinguncha yoki muddatli omonat (depozit) shaklida jalb qilinishi mumkin. Quyidagi chizmada aynan

muddatli omonatlarning ishlash mexanizmi islom bankchiligida, jumladan islom

darchalarida qanday tashkil qilinishini ko'rishimiz mumkin:



1-rasm. Muzoraba shartnomasining ishlash prinsipi [6]

Muzorabani shartlari esa quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Sarmoya naqd pul bo'lishi shart.
- 2) Sarmoyaning miqdori shartnoma tuzilgan vaqtda qayd etib qo'yilishi yoki bu qiymat foyda egalari o'rtasida taqsimlangunga qadar ma'lum bo'lishi shart.
- 3) Sarmoya bironing zimmasidagi qarz va ishchining qo'lga olishi imkoni yo'q g'oyib mablag' bo'lmasligi shart.
- 4) Ikki taraf shartnomada foyda oz yoki ko'p bo'lishiga qaramasdan, uni yarim yoki uchdan bir kabi nisbatda kelishib olishlari shart. Bu foydada sherikchilik asosida bo'ladi. Ammo ziyon yolg'iz sarmoya egasining zimmasida bo'lib, ishchiga esa undan biror narsa yuklatilmaydi. Chunki ziyon sarmoyaning nuqsonga uchrashidir. Shunga ko'ra sarmoyador ishchiga sarmoya bilan qo'shib, ma'lum mablag'ni yoki foizni qo'shib berishi joiz emas.
- 5) Foyda miqdori ma'lum bo'lishi ham shart. Foydani noma'lumligi shartnomani fosiqladi.

Muzoraba va mushoraka shartnomalarining amaliyotdagi kamchiliklari ularning nazariy afzalliklari bilan ziddiyatni yuzaga keltiradi. Nazariy jihatdan ular islom iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi riskni taqsimlash, adolatli sherikchilik va real iqtisodiy faoliyatga bevosita bog'liqlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan. Biroq,

zamonaviy bank tizimining pragmatik talablari, jumladan riskni minimallashtirish, operatsion samaradorlik va barqaror daromad olish istagi ushbu shartnomalarning keng tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda.

Kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1) Riskni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Loyihalarni baholash va monitoring qilish uchun zamonaviy texnologiyalar (masalan, sun'iy intellekt, blokcheyn)dan foydalanish, axloqiy xavfni kamaytirish choralarini ko'rish.
- 2) Boshqaruv cheklovlarini takomillashtirish. Hukumatlar va markaziy banklar Muzoraba va Mushoraka uchun aniqroq va qo'llash uchun qulay regulativ muhit yaratishlari zarur.
- 3) Standardlashtirish. Islomiy moliya institutlari ushbu shartnomalarni tuzish va boshqarish bo'yicha standartlashtirilgan amaliyotlarni joriy etishi kerak.
- 4) Ta'lim va moliyaviy savodxonlikni oshirish. Bank xodimlari va mijozlar o'rtasida muzoraba va mushorakaning afzalliklari, mexanizmlari va ularni samarali qo'llash bo'yicha ta'lim berish.
- 5) Venchur kapital va kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi salohiyat. Ushbu shartnomalar ayniqsa ventchur kapitali va kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda katta salohiyatga ega, chunki ular ushbu

sohalarda mavjud bo'lgan yuqori riskni taqsimlashga imkon beradi.

Xalqaro statistika ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2024-yilda dunyo bo'ylab islomiy moliya aktivlari 5,1 trillion AQSh dollariga yetdi. Bu aktivlarning 60 foiz O'rta Sharq va Janubiy Osiyoda joylashgan davlatlarga tegishli. Aynan shu hududlarda islom banklarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi 4,2 foizga oshdi. O'zbekistonda islomiy moliya sohasining rivojlanishi so'nggi o'n yil ichida yiliga taxminan 10 foizga oshdi. 2023-yilgi Global Islom Iqtisodiyotining holatining hisobotiga ko'ra, 2026-yilga borib shariatga mos keladigan jami aktivlar 5,95 trillion dollargacha o'sishi mumkin [7].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, muzoraba savdosi o'ta aniq shartlar ustiga bino qilingan savdo turi bo'lib, ushbu savdo to'la islom qonunchiligiga asoslangandir. Bundan maqsad esa savdolashayotgan ikki tomonning manfaatlari

poymol bo'lmasligidir va harom yo'l bilan mol to'plamaslikni joriy qilishdir.

Xulosa va takliflar.

Muzoraba va mushoraka shartnomalari islomiy moliyaning o'zagini tashkil etuvchi, adolatli va riskni taqsimlovchi moliyalashtirish mexanizmlari hisoblanadi. Garchi ularning nazariy afzalliklari islomiy iqtisodiyot tamoyillariga to'liq mos kelsada, yuqori risk darajasi, boshqaruvning murakkabligi, regulativ cheklovlar va bozor talablari kabi kamchiliklar ularning amaliyotda keng qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu shartnomalarning islom moliya tizimidagi ulushini oshirish uchun tizimli yechimlar, jumladan, texnologik innovatsiyalar, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va ta'lim dasturlarini joriy etish zarur. Kelajakda islomiy moliya institutlari ushbu shartnomalarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish va islomiy iqtisodiyotning yanada barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga intilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2005. *Ixtiloflar: sabablari, yechimlari*. Sharq. 60-63-bet.
2. Usmoniy, M. T. 2002. *An Introduction to Islamic Finance*. Karachi, Idaratul Ma'arif. Pages 58-77.
3. Khan, F. 2010. *How Islamic is Islamic Banking?*. *Journal of Economic Behavior & Organization*, 76(3), 805-820.
4. Al-Harran, S. 2007. *Islamic Banking: A Theoretical and Practical Framework*. Islamic Finance House. Pages 65-70. <https://islamicbankers.center/wp-content/uploads/2014/09/marifas-practical-guide-to-islamic-banking-and-finance.pdf>
5. Rosly, S. A. 2005. *Critical Issues on Islamic Banking and Financial Markets*. Dinamika Publishing. Pages 50-56.
6. Sapuan N. M. An evolution of Mudarabah contract: a viewpoint from classical and contemporary Islamic scholars // *Procedia Economics and Finance*. – 2016. – T. 35. – P. 349-358.
7. *Islom moliyasiga oid yangiliklar jamlangan rasmiy axborot veb-sayti ma'lumotlari* - <https://www.islamicfinancenews.com>